

Muhsinjonova Shirinoy Asliddin qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti
1-kurs tayanch doktoranti

MAHMUD KOSHG'ARIYNING "DEVONU LUG'OTIT-TURK" ASARIDA SABZAVOT NOMLARINING IFODALANISHI

Annotatsiya. Ushbu tezisdan Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asaridan o'rin olgan sabzavot nomlari xususida fikr yuritiladi. Qayd etish lozimki, asardan o'rin olgan sabzavot mahsulotlari nomlari davr tili xususiyatidan kelib chiqqan holda belgilangan hamda ularning ayrimlari bugungi kunga qadar o'z shaklini qisman o'zgartirgan holda saqlab qolgan.

Kalit so'zlar: Mahmud Koshg'ariy, "Devonu lug'otit-turk", sabzavot nomlari, shakl o'zgarishlari, mahsulot nomlari.

Sabzavot mahsulotlari ham oziq-ovqat mahsulotlari sirasiga kiritilib, "Devon"dan o'rin olgan sabzavot nomlari bevosita eski turkiy tilga xos bo'lgan jihatlarni o'zida aks ettiradi. Lug'atda qayd etilgan sabzavotlarga oid leksika xususida so'z yuritishdan oldin sabzavot leksemasi borasida fikr bildirish maqsadga muvofiq. Sabzavot so'zi fors-tojik tilidan olingan bo'lib, "yam-yashil o't, maysa" lug'aviy ma'nosiga ega¹. Sabza otiga -(v)ot affiksini qo'shishdan yuzaga kelgan ushbu leksema "rezavor va poliz ekinlari mahsuli" ma'nosini anglatadi². Wikipedia online ochiq lug'atida ushbu so'zga quyidagicha ta'rif beriladi:

"Sabzavot – rezavor va poliz ekinlari hamda ularning ovqatga ishlatiladigan mahsuli(bodring, karam, sabzi, piyoz, pomidor va shu kabilar). Sabzavot ekish. Sabzavot do'koni. Xushbo'y mevalar, ayniqsa, ko'katlar, turli nav sabzavotlar juda mo'l yig'ildi. Oybek"³.

Asarda qo'llangan sabzavot nomlari anchayin salmoqli bo'lib, ular bugungi kunda nutqda faol qo'llanayotgan sabzavot nomlaridan birmuncha farq qiladi. Sabzavot leksemasining o'zi ham asarda ya's-yu'sh(16; b371) tarzida qo'llanilgan hamda ushbu so'zga muallif izohi quyidagichadir: bu so'zlar juft holda qo'llanadi; yus ning bir o'zi alohida qo'llanmaydi.

Sabzi nomi eski turkiy tilda o'rlí(16; b65) deya yuritilgan, uning Qoshg'arda ekilishi hamda rangi oq, mazasi shirin bo'lishi haqida ma'lumotlar berilgan. "Devon"dan o'rin olgan ushbu so'z muallifning quyidagi izohi orqali ochiq qilinadi: "Arg'uliklar sabzini kizri deydilar. Bu so'zni ular forslarning gazar so'zidan buzib olganlar. O'g'uzlar uni ke'sh'ur deydilar. Ular ham bu so'zni forslardan olganlar"⁴. So'z etimologiyasiga to'xtaladigan bo'lsak, ushbu so'z fors tilidan kirib kelgan bo'lib, "yashillik" degan ma'noni anglatadi⁵. Bizning faraziy qarashlarimizga ko'ra, sabzi va sabzavot so'zlari kelib chiqishiga ko'ra o'zaro aloqadordir (so'z asosini sabz leksemasiga bog'lagan holda ushbu fikrni ilgari surmoqdamiz). Sabzi leksemasining boshqa fonetik variantlari ham mavjud bo'lib, u turkiy tillar oilasining turli tillarida turfa xil nom bilan yuritiladi: sabji, subjee, subz, subzi va h.z.⁶

"Devonu lug'otit-turk"da sabzi so'zini ifodalash maqsadida sar'ix turma(16; b172) birikmasining ham ishlatilishi ham urg'ulangan. Ushbu so'z turp leksemasi bilan omonimlik hodisasini yuzaga keltiradi. Bu fikrni asarda qo'llangan turma(16; b172) ("turp") so'zi orqali ilgari surmoqdamiz. "Devon"da o'z sifatlovchisiga ega bo'lgan, turp leksemasi asosida hosil qilingan sintaktik butunliklar ham mavjud: ku'w'iz turma(16; b147) – buzilib, ta'mi ketgan turp, po'k turp.

¹ [Sabzavot - Vikipediya \(wikipedia.org\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Sabzavot)

² [Sabzavot - Vikipediya \(wikipedia.org\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Sabzavot)

³ <https://uz.m.wiktionary.org/wiki/sabzavot>

⁴ Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit-turk. – Toshkent:G'afur G'ulom nashriyoti,2017. – B 129.

⁵ [sabzi - Wiktionary](https://en.wiktionary.org/wiki/sabzi)

⁶ <https://en.m.wiktionary.org/wiki/sabzi>

çaxmur ifodasi orqali sholg‘om leksemasi ifodalangan. Koshg‘ariyning ta‘kidlashicha, çaxmur(16; b153) fitonimining çaxmur shakli og‘zaki nutqda mavjud. “Bodring” ma‘nosi “Devon”da turmuz leksemasi orqali qayd etilgan: er turmuzni qarç-qurç yedi – er bodringni g‘arch-g‘urch chaynab yedi⁷. Sarmusaq yoki samursaq so‘zlari hozirgi o‘zbek tilidagi sarimsoq so‘zining eski turkiy tilda qo‘llangan shakllari hisoblanadi⁸. Ushbu fitonim asl turkiy tilga oid sanaladi. Sarimsoq navlaridan biri sifatida qo‘llangan tog‘ sarimsoq piyozi “Devon”da basar(16; b145) fitonimi bilan ifodalangani ta‘kidlangan.

So‘run(16; b164) - “Devon”dagi piyoz leksemasining eski turkiy tildagi ko‘rinishi. “Devon”dagi boshqa bir o‘rinda ushbu so‘z so‘ran(16; b164) shaklida berilgan. Muallifning qayd etishicha, chigil tilida bu so‘z quçxundī(16; b195) shakliga ega. Tog‘ piyozi “Devon”da kewürkän(16; b206) so‘zi bilan anglashilgan. “Devon”da baqlajon mahsulotining nomi “bütügä”⁹ fitonimi yordamida izohlangan.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asaridan o‘rin olgan sabzavot nomlari davr tili xususiyatidan kelib chiqqan holda aks ettirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit-turk. – Toshkent:G‘afur G‘ulom nashriyoti,2017.
2. Бегматов Э. Хозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985.
3. Бобожонов Ё. Жанубий Хоразм этнографиклексикаси. – Тошкент: НДА, 1997.
4. Болтабоев Х., Дадабоев Х. Девону луғотит турк, I,II,III жилдлар. – Тошкент, 2006-2008.
5. Будагов Л. Сравнительный словарь турецко – татарских наречий. I, .СПБ, 1969, II. СПБ.
6. Вохидов Эркин. Сўз латофати. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018.
7. Гумилев. Л.Н. Қадимги турклар. – Тошкент: Фан, 2007.
8. Дадабаев Х., Насыров И., Хусанов Н. Проблемы лексики староузбекского языка. – Ташкент: Фан, 1990.
9. Дадабоев Х. “Девону луғотит-турк”нинг тил хусусиятлари. – Тошкент: ТДШИ, 2017.
10. Дадабоев Х. Қадимги туркий ёдгорликлардаги атамалар ҳақида // Адабий мерос. 1998. №1-2.
11. Дадабоев Х., Ҳамидов З., Холманова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. – Тошкент: Фан, 2007.

⁷ Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit-turk. – Toshkent:G‘afur G‘ulom nashriyoti,2017.– B 140.

⁸ Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit-turk. – Toshkent:G‘afur G‘ulom nashriyoti,2017. – B 206.

⁹ Mahmud Koshg‘ariy. Ko‘rsatilgan asar. – B 178.